

**IQTISODIYOTNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

*Davlatova Shoxsanam dilshodbekovna-NamMQI  
55-IQT-21 guruhi talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola yurtimizdagи iqtisodiyotni hozirgi holatigacha rivojlantirish uchun qanday chora tadbirlar va bosqichma-bosqich rivojlantirishi ilgari surilgan

**Kalit so‘zlar:** Iqtisodiyot, rivojlanish, tadbiq etish, moliyaviy barqarorlik, byudjet, bank, investitsiya, modernizatsiya, diversifikatsiya, kapital

**Анотаций:** В данной статье представлены меры и шаги по развитию экономики нашей страны до ее современного

**Ключевые слова:** экономика, развитие, реализация, финансовая устойчивость, бюджет, банковское дело, инвестиции, модернизация, диверсификация, капитал.

**Annotation:** This article presents measures and steps to develop the economy in our country to its current state.

**Key words:** Economy, development, implementation, financial stability, budget, banking, investment, modernization, diversification, capital

Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiyotsiz hayotimizni tasavvur etib bo‘lmaydi. Mamlakatimiz mustaqillik yillarda O‘zbekistonning bиринчи prezidenti I.Karimov bevosa tashabbusi va rahbarligida har tomonlama puxta o‘ylab ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ni ishlab chiqib tadbiq etish orqali iqtisodiyotimiz misli ko‘rilmagan katta natijalarga erishdi. Bularga yaqqol misol qilib, mustaqillik yillarda milliy xo‘jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo‘lib qolgan bir tomonlama xomashyo ishlab chiqarish bo‘yicha rivojlanish, paxta yakkahokimligi va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o‘sishi taminlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalari o‘rtasidagi muvozanatlik va mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizimining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi va rivojlantirildi. Soliq byudjet va tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida, bank tizimi faoliyatida mustahkam barqarorlik, davlat qarzini nisbatan past darajada ushlab turish ta’minlanib mamlakatimizning jahon miqyosidagi obro‘- etiborini yuqori darajaga ko‘tarishga erishilmoqda.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan modernizatsiya, tarkibiy o‘zgarish va diversifikatsiya natijasida yangidan-yangi zamонавиy tarmoqlar va ishlab ishlab

chiqarish ishga tushirilmoqda. Bu o‘zgarishlar va xalqimizning fidokorona mehnati natijasida yaratilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat turlarining ko‘payib, sifati tubdan yaxshilanib borishiga, aholi daromadli va turmush darajasining keskin o‘sishi, ularning ertangi kunga bo‘lgan ishonchining tobora oshib borishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etib turishi, dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi, jahon bozorida vaziyatning tez o‘zgarayotgani dunyoning ko‘plab mamlakatlarida investitsion faollikning susyishi real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o‘sishi sura’ti pasayib borishi kuzatilib, jahon bozorlarida xarid talabining kamayishi sodir bo‘lmoqda, ishsizlik darajasi yuqori darajada bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari mamlakatimizdagi ayrim sohalar, tarmoqlar va kompaniyalarda eksport hajmi kamayib, import hajmi oshib ketishi, ko‘plab kapital mablag‘lar sarflanishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdarligining pasayib ketishi fan-texnika taraqqiyoti yuz berib, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishiga qaramay ketgan xarajatlar va mahsulot tannarxi pasayish o‘rniga aksincha, oshish holati yuz berishi, valyuta munosabatlarining tartibga solinmaganligi, naqd pul bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar o‘rtasida farq mavjudligi kabi noxush holatlar sodir bo‘lib turibdi. Bu holatlar mamlakatimiz oldida turgan keng ko‘lamli dasturiy maqsad va vazifalar-islohotlararimizni yanada chuqurlashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy rivojlanish yo‘lida g‘ov bo‘lib turgan barcha to‘siq va cheklowlarni bartaraf etish, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmonida belgilangan vazifalar va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qiladi. Doimiy o‘zgarib turuvchi ichki va tashqi iqtisodiy muhit, uning insonlar, korxonalar, mamlakatlar va butun dunyoga kuchayib boruvchi ta’sirini kuzatib, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan xatti-harakatlar, iqtisodiy faoliyat jarayonlarini oldindan sezish va ko‘ra bilish yani, iqtisodiy ziyraklik-yuksak ma’naviyatli shaxs fazilatlaridan biri bo‘lib, uni chuqur iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarsiz tasavvur etish mumkin emas.